

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIMIY TOPSHIRIQARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna

*Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va
maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada o'qish savodxonligi darslarida zamonaviy ta'lim topshiriqlarini yaratish va undan foydalanish y'llariga alohida to'xtab o'tilgan. Undan tashqari ta'limiy topshiriq namunalari ham berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'limiy, topshiriqlar, usullar o'qish savodxonligi, kitobxonlik, ko'nikmalar, maqsad, ochil dasturxon, begona jumla, rivojlantirish

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ НА УРОКАХ ПО РАЗВИТИЮ ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ

Гайибназарова Наргиза Рахимжоновна

*старший преподаватель кафедры методики дошкольного, начального и
специального образования Наманганского областного центра педагогического*

Аннотация: В статье рассматриваются способы создания и использования современных учебных заданий на уроках по развитию грамотности чтения. Кроме того, приводятся примеры учебных заданий.

Ключевые слова: образовательные, задания, методы, развитие грамотности чтения, чтение, навыки, цель, открытый стол, иностранное предложение, развитие

WAYS OF USING MODERN EDUCATIONAL TASKS IN READING LITERACY LESSONS

Goyibnazarova Nargiza Rakhimjonovna

*Senior teacher of the Department of Pre-School, Primary and Special Education
Methods of the Pedagogical Center of Namangan Region*

Annotation: The article focuses on the ways of creating and using modern educational tasks in reading literacy lessons. In addition, examples of educational tasks are also given.

Keywords: Educational, tasks, methods reading literacy, reading, skills, goal, open table, foreign sentence, development

Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarini tashkil etish quyidagi muhim jihatlarga asoslanadi. Darsni rejalashtirish va darsning maqsadi va vazifalarini aniqlanadi. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olinadi. Ta'lim metodlarini tanlash (interfaol, o'yinli, vizual yondashuv). Dars jarayonini bosqichma-bosqich rejalashtiriladi. O'quvchilarning tushunishini tahlil qilish. Yozma va og'zaki nazorat usullaridan foydalanish.

Rivojlanish dinamikasini kuzatish. Boshlang'ich ta'limda o'qish darslari bolalarning qiziqishini oshirish, ularga adabiyot va tilga bo'lgan muhabbatni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Shu boisdan, darslar qiziqarli, interfaol va samarali tashkil etilishi muhim. O'qish savodxonligi darslarining maqsad va vazifalari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil va ongli o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, matnni tushunish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, kitob o'qishga qiziqish uyg'otishdam iborat.

O'qish texnikasini shakllantirish. Harflarni to'g'ri talaffuz qilish. Harflardan bo'g'in, so'z va gap tuzish. Silliqlik va ifodali o'qishga o'rgatish. Ongli o'qishni rivojlantirish. Matn mazmunini tushunish va asosiy fikrni aniqlash. O'qilgan matnga oid savollarga javob berish. Matndagi asosiy voqealarni izchillik bilan qayta hikoya qilishga o'rgatadi.

Lug'at boyligini oshirish. Yangi so'zlarni o'rganish va ularning ma'nosini tushuntirish, so'zlarning to'g'ri talaffuzi va yozilishini o'rgatish. So'z boyligini oshirish orqali nutq madaniyatini rivojlantirish, tushunish va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Matn bo'yicha fikr bildirish va uni baholash matn asosida mustaqil xulosa chiqarish. O'qilgan materialni shaxsiy tajriba bilan bog'lash kitob o'qishga qiziqishni uyg'otadi. O'quvchilarni kutubxona va kitobxonlik faoliyatiga jalb qilish mumkin.

Oila va jamiyatda o'qish madaniyatini targ'ib qilish o'qish tezligi va ifodaliligini oshirish, ovoz chiqarib va ichida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Tovush, intonatsiya va pauzalarini saqlagan holda o'qishga o'rgatish o'qish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etadi. Savodxonlik darslari bolalarning nafaqat o'qish texnikasini, balki mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Shu sababli, darslar qiziqarli, interfaol va turli metodlardan foydalangan holda tashkil etilishi muhim.

O'quvchilarning tushunishini tahlil qilish, yozma va og'zaki nutqni amalga oshiradi. Boshlang'ich ta'limda o'qish darslari bolalarning qiziqishini oshirish, ularga adabiyot va tilga bo'lgan muhabbatni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Shu boisdan, darslar qiziqarli, interfaol va samarali tashkil etilishi muhim.

O'qish savodxonligi darslarining maqsad va vazifalari qo'yiadi. O'qish savodxonlii darslarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil va ongli o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, matnni tushunish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, kitob o'qishga qiziqish uyg'otadi.

Matn mazmunini tushunish va asosiy fikrni aniqlash, o'qilgan matnga oid savollarga javob berishga o'rgatiadi. Matndagi asosiy voqealarni izchillik bilan qayta hikoya qilish. Lug'at boyligini oshirish ishlari oib boriladi. Yangi so'zlarni ustida ishanadi. Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarini tashkil etish ko'p muhim jihatlarga asoslanadi. Darsni rejalashtirish, darsning maqsadi va vazifalarini aniqlash lozim. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib ta'lim metodlarini tanlash (interfaol, o'yinli, vizual yondashuv) orqaali dars jarayonini bosqichma-bosqich rejalashtiriladi. O'qish darslariga ham tayyorgarlik bosqichi bo'ladi. O'quvchilarni darsga tayyorlash, motivatsiya beriladi.

Matn bilan ishlash (o'qish, so'zlarni tushuntirish, savol-javob). O'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, O'qish sacodxonligi va ovoz chiqarib, ichda o'qish ko'nikmalarini shakllantirish ishlari amalga oshiriladi. Mustahkamlash bosqichida mashqlar va topshiriqlar yordamida bilimlarni mustahkamlanadi. Uyga vazifani tushuntiriladi, metod va vositalar, ko'rgazmali qurollar (rasmlar, jadvallar, slaydlar). interfaol metodlar (rol o'ynash, klaster usuli, aqliy hujum) dars davomida turli texnologiyalar (audiokitoblar, elektron darsliklar). Jamoaviy va individual ishlar olib boriladi.

Dars so'ngida natijalarni baholanadi. O'quvchilarning tushunishini tahlil qilinadi. Yozma va og'zaki nazorat usullaridan foydalanib rivojlanish dinamikasini kuzatiladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish darslari bolalarning qiziqishini oshirish, ularga adabiyot va tilga bo'lgan muhabbatni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Shu boisdan, darslar qiziqarli, interfaol va samarali tashkil etilishi muhim. O'qish savodxonligi darslarining maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil va ongli o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, matnni tushunish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, kitob o'qishga qiziqish uyg'otishdir.

Bunda o'quvchilarda o'qish texnikasini shakllanadi. Harflarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rganadi. Harflardan bo'g'in, so'z va gap tuzadi. Sidirg'a va ifodali o'qishga o'rgatish uchun yo'llanadi. Ongli o'qishni rivojlananadi. Matn mazmunini tushunish va asosiy fikrni aniqlashga o'rganadi. O'qilgan matnga oid savollarga javob beradi.

Matndagi asosiy voqealarni izchillik bilan qayta hikoya qiladi. Lug'at boyligini oshiriladi. Yangi so'zlarni o'rganish va ularning ma'nosini tushuntirish, so'zlarning to'g'ri talaffuzi va yozilishini o'rgatish, so'z boyligini oshirish orqali nutq madaniyatini rivojlantiriladi. Tushunish va tanqidiy fikrlashni shakllantirish lozim. Matn bo'yicha fikr bildirish va uni baholash kerak. Matn asosida mustaqil xulosa chiqariadi, o'qilgan materialni shaxsiy tajriba bilan bog'lanadi. Kitob o'qishga qiziqish uyg'otish va kitobxonlik madaniati o'stiriladi. O'quvchilarning yoshiga mos badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan tanishtiriladi. O'quvchilarni kutubxona va kitobxonlik faoliyatiga jalb qilish muhim. Oila va jamiyatda o'qish madaniyatini targ'ib qilish yaxshi natijja beradi. O'qish ifodaliligini oshirish uchun turli tanlov lar o'tkazish ham mumkin. Ovoz chiqarib va ichida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat

beriladi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarini yuqorida keltirilgan tamoyillar talabidan kelib chiqib, eng samarali ilg'or pedagogik texnologiyalari asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun eng birinchi navbatda, pedagogik texnologiyaning mazmun mohiyatini anglab yetish kerak. Darslarda turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni o'qituvchi tominidan oqilona tashkil etilishi, o'quvchilarni ing qiziqishini oshirib, ularning dars jarayonidagi faolligi rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlardan foydalanishni ona tili va o'qish savodxonligi darslarini milliy jihatlar bilan tashkil etish deb ham atashadi. Milliy jihatlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan dars jarayonlari tushuniladi. Bu jarayonlar qo'llanilganda o'qituvchi o'quvchini dars jarayonida faollashtiradi.

“Begona so'z” metodi

Biror mavzu asosida o'tkaziladi, Unda o'quvchilarga shu qoidaga mos mavzuga oid so'zlar berilgani va uning ichida boshqa mavzuga tegishli so'z borligini ham tushuntiradi. O'quvchilarga begona mavzuga tegishli bo'lmagan so'zni aniqlab aytish vazifasi beriladi. Ular ichida qaysi biri bu mavzuga tegishli emas, ya'ni begona jumla. Uni topib va jadval ostiga yozing. Quyida 4-sinf O'qish savodxonligi darsligidagi “Arining qasosi” mavzusiga tayyorlangan variantlarni ko'rib chiqamiz.

“Arining qasosi” mavzusiga 4 –sinf, O'qish savodxonligi	
Ari	Yaylov
Tez yordam	Sholi
Begona so'z: sholi	

“To'pchalardan tanlab ol” metodi

Bu metod o'quvchilarga nutqini o'stirib ravon gapirish, to'g'ri so'zlash imkonini beradi. Bunda o'quvchilarga turli ranglardagi sharlar to'plami taqdim etiladi. Ular bu to'plardan o'zlariga mosini tanlab olib unda yozilgan mavzuga oid qisqa matn qismini tahlil qilishlari kerak bo'ladi..

O'tkazish tartibi: bunda o'quvchilar to'pchalardan birini tanlab oladi. Unga ruchkada yoki qog'ozda savol yopishtirilgan bo'ladi. Uni o'quvchi o'qib tez va o'ylab javob berishi kerak bo'ladi.



Savollardan namunalar:

- Yaylov qanday joy?
- Sigirlar qayerga boqiladi?
- Ikki do'st har kuni qayerga borishadi?
- Ular nima bilan shug'ullandi?
- O'tkir nimani ko'rib qoldi?
- U ari inini nega buzdi?
- Sardor do'stiga nima degan edi?
- Tez yordam kim uchun keldu?
- O'tkir qanday jazolandi?
- Hikoya so'ngiga xulosa qiling.

“Ochil dasturxon” metodi “Arining qasosi” (4-sinf O'qish darsi).

Maqsad: Matn mazmunini o'zlashtirishni mustahkamlash.

O'quvchilarda xulosaga kelish, bahs-munozara qilish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Matndan ibratli g'oya chiqarishga o'rgatish.

Metodning qo'llanish tartibi:

Sinf kichik guruhlariga bo'linadi (3–4 guruh).

Har bir guruhga “Ochil dasturxon” metodi asosida (A3 qog'oz yoki katta varaqlar tarqatiladi, unda taomlar rasmi bo'ladi. Ular ko'chadi va uni ostida cho'ntak qismi bor) tarqatiladi.



Guruhlar dasturxonga turli taomlar rasmi yopishtirilgan yoki chiizlgan bo'ladi. Guruh chiqib shu taomlardan o'iga yoqani tanlab shu taom ostidagi karmon qismiga yashiringan fikrga izoh beradi. Ish davomida har bir guruh “Ochil dasturxon”larini boshqa guruhlariga almashadilar va ular yozgan fikrlarni davomli to'ldiradilar.

Qahramonlar: Asarda kimlar ishtirok etadi?

Voqea joyi: Voqealar qayerda, qachon yuz berdi?

Asosiy voqea: Matnda qanday hodisalar sodir bo'ladi?

Ibrat: Muallif qanday fikrni yetkazmoqchi bo'lgan?

O'tkir nega jazolandi.?

Arilar qasosi hayotda ham shundaymi nima deb o'ylaysiz?

Bu hikoya sizga nima berdi?

Sizning fikringiz: Sizningcha, ari nega qasos oldi? Agar siz bo'lsangiz, qanday yo'l tutardingiz?

“Arining qasosi” hikoyasi asosida test topshiriqlari berish ham o'quvchilarni tezkor aniq javb bershga va mavzuni mustahkamlashga yordam beradi.

Ona tili darslarida interaktiv usullar, masalan, munozaralar, loyihaviy ishlar va guruhli mashg'ulotlar o'quvchilarning matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jumladan, o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishda xalqaro tajribalar asosida uzluksiz yuqori muvaffaqiyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim standartlari (Boshlang'ich ta'lim DTS, 2023)
2. Boshlang'ich ta'lim o'qish kitoblari (1–4-sinf) – Respublika ta'lim markazi
3. O. Toshboyeva, H. Qo'ziyev “Savodxonlik darslari metodikasi”
Sh. Inomova “Boshlang'ich ta'limda o'qish darslari metodikasi”
4. S. Matnazarov “O'qish savodxonligi asoslari”
5. Umarov A. S., Raximov A. K., Mirzayeva N. A. Dars sifatining tahlili – ta'lim taraqqiyoti mezonini // “Ta'lim va rivojlanish tahlili” onlayn ilmiy jurnali. 2022.
6. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun o'quv modullari// Samarali maktab va hamkorlik madaniyati // II modul. – T., 2010